O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 15 - fevral 99-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Qo‘qon shahridagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 9- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. “Yangi Kelajak Yoshlar Bilan” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2024-yil 13-fevraldagi №-01-03-sonli murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo‘qon shahar hokimligi balansidagi Qo‘qon shahar, “Tolzor” MFY, Islom Karimov nomli ko‘chasida joylashgan sobiq 9-sonli, “Yangiobod” MFY, Mahram ko‘chasida joylashgan sobiq 19-sonli, Ustabozor ko‘chasida joylashgan sobiq 31-sonli, “Galabaqqolik” MFY, Hurramlik ko‘chasida joylashgan sobiq 20-sonli va Ustabozor ko‘chasida joylashgan sobiq 15-sonli suv inshootlari investitsiya kiritish va yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan “Yangi Kelajak Yoshlar Bilan” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga doimiy muddatga foydalanish huquqi bilan biriktirib berilsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, “Yangi Kelajak Yoshlar Bilan” mas’uliyati cheklangan jamiyati obyekt negizida investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida quyidagi investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

“Tolzor” MFY, Islom Karimov nomli ko‘chasida joylashgan sobiq 9-sonli suv inshootiga 600 mln.so‘m miqdorida investitsiya kiritish, tikuvchilik sexi faoliyatini

yo‘lga qo‘yish orqali yangi 10 tadan kam bo‘lmagan ish o‘rni yaratish;

“Yangiobod” MFY, Mahram ko‘chasida joylashgan sobiq 19-sonli suv inshootiga 700 mln.so‘m miqdorida investitsiya kiritish, zamonaviy tipdagi klinika markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va obyekt negizida 10 tadan kam bo‘lmagan yangi ish o‘rni yaratish;

“Ustabozor” ko‘chasida joylashgan sobiq 31-sonli suv inshootiga 1200 mln.so‘m miqdorida investitsiya kiritish, qog‘ozni qayta ishlash va sellofan idishlar ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali 10 tadan kam bo‘lmagan ish o‘rni yaratish;

“Galabaqqolik” MFY, Hurramlik ko‘chasida joylashgan sobiq 20-sonli suv inshootiga 600 mln.so‘m miqdorida investitsiya kiritish, sog‘lomlashtirish markazi va sport inshooti faoliyatini yo‘lga qo‘yib, obyekt negizida 10 tadan kam bo‘lmagan yangi ish o‘rni yaratish;

“Ustabozor” ko‘chasida joylashgan sobiq 15-sonli suv inshootiga 700 mln.so‘m miqdorida investitsiya kiritish, obyekt negizida zamonaviy tipdagi klinika markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali 10 tadan kam bo‘lmagan yangi ish o‘rinlari yaratish.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari (Mamajonov) Qo‘qon shahar hokimligi (Usmonov) bilan birgalikda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi yuzasidan monitoring yuritilishi ta’minlasin.

5. Davlat kadastri agentligining viloyat boshqarmasi (Mashrapov) Qo‘qon shahar hokimligi (Usmonov) bilan birgalikda obyektga biriktirib berilgan yer maydoniga aniqlik kiritsin hamda tegishli tartibda kadastr hujjatlari tayyorlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**